CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

USMANOVA XADICHA BAHODIR QIZI

BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI AQLI ZAIF O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-MAISHIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

CHIRCHIQ – 2026

UO‘K: 376.091.3-056.36:316.42

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Usmanova Xadicha Bahodir qizi
Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash metodikasi.....5

Усманова Хадича Баходир кизи
Методика подготовки будущих олигофренопедагогов к формированию социально-бытовых навыков у учащихся с интеллектуальными нарушениями……..23

Usmanova Khadicha Bakhadir kizi
Methodology for preparing future oligophrenopedagogues to develop social and daily life skills in students with intellectual disabilities……..49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……53

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

USMANOVA XADICHA BAHODIR QIZI

BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI AQLI ZAIF O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-MAISHIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

CHIRCHIQ– 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped11091-raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent Kimyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasi (yangi.cspu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Musayeva Nargiza Sayfullayevna** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xoliqov Azamat Qahramonovich** pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent
	Arslonova Madina Mansurovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41.) e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi)

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim muassasalarida oligofernopedagogika sohasini takomillashtirishning assistiv texnologiyalariga asoslangan amaliy modellari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan kreativ va innovatsion texnologiyalari ta’lim jarayonida rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inchxon deklaratsiyasida insonlarning umr bo‘yi ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan vazifalar asosida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limini sifatli tashkil etish va intensiv rivojlantirish, mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish, gamifikatsiya asosida bo‘lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha loyihalarni amaliyotga tadbiq etishga oid tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoning qator ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida mental muammolari (intellektual rivojlanishda nuqsonlari) bo’lgan bolalar ta’limi sifati va samaradorligini oshirish, ularning rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ijtimoiy-kasbiy ko’nikmalarini shakllantirish hamda ushbu toifadagi bolalar va ularning oilalariga tizimli psixologik-pedagogik ko’maklashish yo’nalishida keng ko’lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarga nisbatan ijtimoiy qarashlarni insonparvarlashtirish, ularning pedagogik va ijtimoiy himoyasini ta’minlash hamda ijtimoiy yo’naltiruvchi korrektsion-pedagogik faoliyat tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda. Bunda oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish strategiyalarini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda talabalarni mental muammolari bo’lgan bolalar bilan ishlashga sifatli tayyorlash maqsadida integrativ yondashuvlardan foydalanishning metodik tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda so’nggi yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, o’qitishning ilg’or xorijiy texnologiyalarini tatbiq etish, zamonaviy bilim hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega, kreativ fikrlaydigan, har tomonlama barkamol mutaxassislarni tayyorlashning mustahkam me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Xususan, “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyish etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”[1] soha tizimini rivojlantirishning strategik maqsadi sifatida belgilab olindi. Mazkur strategik vazifalar doirasida, oliy ta’lim muassasalarida mental muammolari bo’lgan bolalar ta’limi sifati va samaradorligini ta’minlaydigan bo’lajak maxsus pedagoglar (oligofrenopedagoglar)ning tayanch va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

kasbiy kompetentsiyalarini samarali takomillashtirish tizimi tubdan yangilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishga mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demoktratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy – ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda inklyuziv va korreksion ta’lim jarayonida turli toifadagi imkoniyati cheklangan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashning tashkiliy-pedagogik masalalari A.O.Abdunazarov, M.F.Hakimova, K.S.Mamedov, G‘.B.Shoumarov, ijtimoiy-psixologik aspektlari Sh.M.Amirsaidova, S.Sh.Aytmetova, M.A.Daminova, X.I.Malikova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuxamedova, korreksion-metodik jihatlari L.T.Mamatqulova, P.M.Po‘latova, bo‘lajak defektologlarni rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan turli toifadagi bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-pedagogik ishga tayyorlash muammolari O.F.Teshbayeva, F.R.Teshabayeva, L.R.Xayitovlar tomonidan o‘rganilgan. Natijada amaliyotga imkoniyati cheklangan bolalar qatori aqli zaif bolalarning ta’limi, tarbiyasi, ijtimoiy moslashuvini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari E.Y.Dashevskaya, A.V.Zakrepina, M.V.Luzik, G.E.Suxareva, L.S.Vigotskiylar tomonidan pedagogik faoliyatning mazmuni, strukturasi va unga talabalarni tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik xususiyatlari ochib berilgan bo‘lsa, maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish masalalari I.M.Yakovleva, V.A.Borodina, T.L.Korjenevich, L.A.Lisurenko, I.A.Filatova, V.A.Jarova, E.V.Obuxova, A.Y.Kvasova, I.V.Galanova, V.A.Zharova tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan P.F.Pinel, J.D.Eskirol, T.Willis, M.S.Pevzner, E.Segenlar aqli zaif bolalarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tadqiq etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent Kimyo xalqaro universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqish;

aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishning didaktik aspektlari bo‘yicha talabalarda shakllangan kasbiy kompetentsiyalarni baholash mezonlarini optimallashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti “Maxsus pedagogika: oligofernopedagogika” yo‘nalishining jami 204 nafar talabalari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod, texnologiya va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlar, ish hujjatlari, faoliyat natijalarini o‘rganish, tahlil qilish, suhbat, anketa, kuzatish, tajriba, matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: .

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari talabalarning individual o‘zlashtirish xususiyatlarini tezkor diagnostika qilishga mo‘ljallangan kasbiy harakatlar kombinatsiyalaridan maxsus korreksion vaziyatlar

bo‘yicha dinamik transformatsiyalanuvchi o‘quv muhitida differensial foydalanish asosida ochib berilgan;

talabalarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modeli aqli zaiflikda ijtimoiylashuvning kompleks muammolariga yo‘naltirilgan didaktik instrumenariyni talabalarning kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tarkibiga ko‘p variantli yondashuvni tanlash imkoniyati ustuvorligida kiritish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash texnologiyalari diagnostik va korreksion faoliyat strategiyalarini integratsiyalovchi metodik algoritmni multidistsiplinar ta’sir ustuvorligida modellashtirish hamda individual monitoring qulayligiga ko‘ra modifikatsiyash asosida ishlab chiqilgan;

talabalarda shakllangan kasbiy kompetentsiyalarni baholash mezonlari muammoli vaziyatlarni yechish tezkorligini aniqlovchi kasbiy eruditsiya, korreksion ta'sir samaradorligini tashxislovchi pedagogik dizayn, o‘zgaruvchan pedagogik sharoitlarga moslashishga tayyorlovchi metodik transformatsiya ko‘nikmalari bo‘yicha dinamik ko‘rsatkichlar monitoringida akademik minimal chegaralarni maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

bo‘lajak oligofrenopedagoglarning aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarini maxsus ta’lim jarayonida takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik, psixologik-motivatsion, umumdidaktik va o‘ziga xos xususiyatlari, samarali omillari, tamoyillari aniqlangan;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, talabalarning individual o‘zlashtirish xususiyatlari aniqlangan tarzda “Daun sindromi mavjud bolalarni o‘qitish va tarbiyalash” nomli darslik nashr qilingan;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashda keys-stadi, mikroamaliyot, simulyatsiya texnologiyalari, interfaol integrativ seminar dasturi hamda refleksiv tahlil uchun shaxsiy (personal) portfolio tizimi joriy etilgan;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashga oid o‘quv materiallari va metodik tizim “Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “Daun sindromi mavjud bolalarni o‘qitish va tarbiyalash” tanlov fanining sillabusi mazmuniga singdirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiya materiallari to‘plamlari, OAK tavsiya etgan hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, to‘plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekani; tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy g‘oyalarning soha amaliyotining mohiyatini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashda tezkor diagnostikaga yo‘naltirilgan kasbiy harakatlar kombinatsiyalaridan maxsus korreksion vaziyatlar bo‘yicha dinamik transformatsiyalanuvchi o‘quv muhitida differensial foydalanishning imkoniyatlari, aqli zaiflikda ijtimoiylashuvning kompleks muammolariga yo‘naltirilgan didaktik instrumentariyning kasbiy rivojlanish trayektoriyasi bo‘yicha optimallashuv komponentlari ochib berilganligi, diagnostik va korreksion faoliyat strategiyalarini integratsiyalovchi metodik algoritmning multidissiplinar ta’sir ustuvorligida modellashtirilishi hamda individual monitoring qulayligiga ko‘ra modifikatsiyalanishi talabalarning kasbiy faoliyatga intensiv tayyorlashini ilmiy asoslab berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan tavsiyalardan oligofrenopedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida, aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash metodikalarini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlarda, sohaga oid o‘quv adabiyotlarini boyitishda, ota-onalarning korreksion-pedagogik hamda inklyuziv tayyorgarligini oshirishga qaratilgan loyihalarda foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida:

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari talabalarning individual o‘zlashtirish xususiyatlarini tezkor diagnostika qilishga mo‘ljallangan, kasbiy harakatlar kombinatsiyalari va maxsus korreksion vaziyatlar asosida dinamik transformatsiyalanuvchi raqamli ishbilarmonlik (interaktiv simulatsiya) muhitini loyihalashga oid tavsiyalar “Daun sindromi mavjud bolalarni o‘qitish va tarbiyalash” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 25-fevraldagi 6449-2069-9ed0-6eb3-1c29-1444-8332-sonli ma’lumotnomasi). Natijada asosida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning tahlil qilish imkoni oshirilgan;

talabalarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modeli aqli zaiflikda ijtimoiylashuvning kompleks muammolariga yo‘naltirilgan didaktik instrumenariyni talabalarning kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tarkibiga ko‘p variantli yondashuvni tanlash imkoniyati ustuvorligida kiritishga oid tavsiyalardan Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti talabalarining malakaviy amaliyotini tashkil etish jarayonida foydalanilgan (O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 12-iyundagi 01/10-01-251-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy amaliyotga tayyorlash jarayoni nimetodik jihatdan takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash texnologiyalari diagnostik va korreksion faoliyat strategiyalarini integratsiyalovchi metodik algoritmni multidistsiplinar ta’sir ustuvorligida modellashtirish hamda individual monitoring qulayligiga ko‘ra modifikatsiyashga oid takliflar Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika institutlarining o‘quv jarayonida foydalanilgan (O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 12-iyundagi 01/10-01-251-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘rganish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 xalqaro va 2 respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida aqli zaif o‘quvchilarning toifalari, ularda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishning metodik muammolari hamda bo‘lajak oligofrenopedagoglarni mazkur faoliyatga tayyorlashning omillari va tamoyillari tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligi bilan o‘quvchilarning kundalik hayotdagi mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan.

Tadqiqotda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalar o‘quvchining o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishi, shaxsiy gigiyenaga rioya qilishi, kiyinish, ovqatlanish, maishiy buyumlardan foydalanish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish hamda kundalik ijtimoiy vaziyatlarda harakatlanishini ta’minlovchi amaliy ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etilgan. Mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati o‘quvchining mavjud imkoniyatlariga mos mustaqilligini qo‘llab-

quvvatlash, yordamga ehtiyojini kamaytirish va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bilan belgilangan.

L.S.Vigotskiyning bola rivojlanishida ta’lim va ijtimoiy muhitning ahamiyatiga doir qarashlari tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida o‘rganilgan. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, o‘quvchining rivojlanish imkoniyatlarini faqat intellektual cheklanish darajasi bilan belgilash yetarli emasligi, uning mavjud ko‘nikmalari, pedagogik yordamni qabul qilishi va hamkorlikdagi faoliyatini ham hisobga olish zarurligi asoslangan. Bu qarash bo‘lajak oligofrenopedagoglarni o‘quvchining qiyinchiliklari bilan bir qatorda rivojlanish imkoniyatlarini ham aniqlashga, topshiriq va yordam hajmini shu imkoniyatlarga muvofiq tanlashga tayyorlashni talab etadi.

M.S.Pevzner va G.E.Suxarevaning intellektual rivojlanish buzilishlarining tuzilishi hamda individual farqlariga oid qarashlari pedagogik ta’sirni differensial tashkil etish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mazkur qarashlarning tadqiqot uchun ahamiyati shundaki, bir xil ko‘nikmani o‘rgatishda ham o‘quvchilarning bilish faoliyati, nutqi, harakat imkoniyatlari va emotsional-irodaviy xususiyatlariga mos turli metodik yechimlar zarur bo‘ladi. Shu sababli talabalarning tayyorgarligi umumiy metodlarni bilish bilan chegaralanmasdan, ularni muayyan o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirishni ham qamrab olishi lozim.

Mahalliy olimlardan M.F.Hakimovaning ta’lim, tarbiya, mehnatga tayyorlash va ijtimoiy moslashuvni yaxlit pedagogik jarayon sifatida o‘rganishga doir qarashlari ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni maxsus ta’limning muhim natijasi sifatida belgilashga asos bo‘lgan. K.S.Mamedov, G‘.B.Shoumarov va S.Sh.Aytmetovaning aqli zaif bolalar psixik rivojlanishiga oid tadqiqotlari esa topshiriqlarni o‘zlashtirish sur’ati, ko‘rsatmani tushunish, harakat ketma-ketligini bajarish va o‘rganilgan ko‘nikmani boshqa vaziyatga ko‘chirishdagi individual farqlarni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy qarashlar talabalarda psixologik bilimlarni amaliy pedagogik qarorga aylantirish qobiliyatini shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi.

D.A.Nurkeldiyevaning diagnostika va ta’limga tayyorlikni aniqlashga doir ishlari pedagogik yordamni o‘quvchining dastlabki imkoniyatlarini o‘rganish asosida rejalashtirish uchun ahamiyatlidir. A.O.Abdunazarov tadqiqotlari natijasida aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit va korreksion ta’limning uyg‘unligini ta’minlash zarur muhim shart ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlar asosida diagnostika, ko‘nikmani shakllantirish va natijani kuzatish o‘zaro bog‘langan kasbiy harakatlar sifatida qaralgan.

E.Y.Dashevskayaning ijtimoiy-maishiy oriyentirlash faoliyatiga oid tadqiqotida o‘quvchini hayotiy vaziyatda harakatning maqsadi va ketma-ketligini anglashga o‘rgatish masalasi yoritilgan. M.V.Luzikning maishiy mehnat va o‘quv motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka doir qarashlari esa amaliy topshiriqning o‘quvchi uchun tushunarli va ahamiyatli bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda ushbu yondashuvlarning metodik ahamiyati bo‘lajak oligofrenopedagoglarni harakatini realizatsiya qilish, qismlarga ajratish, bosqichma-bosqich mashq qildirish va natijani rag‘batlantirish usullarini uyg‘un qo‘llashga tayyorlashda

namoyon bo‘ldi. Ushbu qarashlar quyidagi mualliflik ta’rifini shakllantirish uchun asos bo‘ldi: **“aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalar”** - individual imkoniyatlarga mos pedagogik yordam asosida shakllanadigan, kundalik hayotda o‘z-o‘ziga xizmat qilish, maishiy vazifalarni xavfsiz bajarish va ijtimoiy munosabatlarda imkon qadar mustaqil ishtirok etishni ta’minlovchi amaliy ko‘nikmalar majmuidir. Bu toifadagi o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirish alohida maishiy harakatlarni takrorlashga o‘rgatish bilan chegaralanmaydi; u o‘quvchining harakat maqsadini tushunishi, bajarish ketma-ketligini o‘zlashtirishi va egallagan ko‘nikmasini kundalik hayotda qo‘llashiga yo‘naltirilgan korreksion-pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini diagnostika qilish, topshiriqlar va yordam hajmini individuallashtirish, pedagogik yordamni o‘zlashtirish dinamikasiga muvofiq kamaytirish hamda ta’lim muassasasi va oiladagi talablar uzviyligini ta’minlashga asoslanadi.

A.V.Zakrepina, E.V.Obuxova va A.Y.Kvasovaning oila hamda mutaxassislar hamkorligiga doir qarashlari ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishning ta’lim muassasasi va uy sharoitidagi uzviyligini ta’minlash nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Bu yondashuvlar bo‘lajak oligofrenopedagogning kasbiy vazifasi mashg‘ulot o‘tkazish bilan cheklanmasligini, ota-onalar bilan kelishilgan ko‘rsatmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni ham qamrab olishini anglatadi. Shunga ko‘ra, kommunikativ hamkorlik tayyorgarlikning zarur tarkibiy jihati sifatida belgilangan.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash masalasida I.M.Yakovlevaning kasbiy kompetentlik, I.V.Galanovaning o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etish va refleksiv tafakkurga doir qarashlari tahlil qilingan. Mazkur qarashlar asosida talabaning tayyorgarligini bilimlarni qayta bayon qilish darajasi bilan baholash yetarli emasligi, uning vaziyatni tahlil qilish, asoslangan metodik yechim tanlash va faoliyati natijasini baholash imkoniyatlarini ham aniqlash zarurligi ko‘rsatilgan. I.A.Filatovaning deontologik tayyorgarlikka oid qarashlari esa kasbiy qarorlarning bola qadr-qimmati, xavfsizligi va individual ehtiyojlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlovchi axloqiy asos sifatida qabul qilingan.

M.A.Daminovaning bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid tadqiqoti individual va differensial yondashuvlar, amaliy topshiriqlar hamda rivojlantiruvchi mikromuhitni uyg‘unlashtirish jihatidan o‘rganilgan. X.I.Malikovaning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda metodik transformatsiyaning ahamiyatiga, L.R.Xayitovning integrativ kasbiy tayyorgarlik uchun zarur bo‘lgan kasbiy eruditsiyani shakllantirishga oid qarashlari fanlararo bilimlarni muayyan pedagogik vazifani hal etishga yo‘naltirish uchun nazariy asos bo‘lgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishning aniq vazifalari, harakat algoritmlari va pedagogik yordam usullari bilan boyitish uchun pedagogik dizayn ko‘nikmasini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatib, tadqiqot metodikasining yo‘nalishini belgilab berdi.

Nazariy tahlil asosida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda

ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini talabalarning individual o‘zlashtirishi, kasbiy harakatlar uyg‘unligi hamda differensial o‘quv muhitini tashkil etish nuqtayi nazaridan aniqlash tarzida aniqlashtirilgan. Natijada talabalarning boshlang‘ich bilimlari, o‘zlashtirish sur’ati, amaliy qiyinchiliklari va kasbiy yo‘nalganligini hisobga olish zarurligi asoslangan. Tashkiliy-pedagogik, diagnostik, rivojlantiruvchi, hamkorlik va monitoringga oid harakatlarni o‘zaro uyg‘un shakllantirish tayyorgarlikning muhim imkoniyati sifatida belgilangan. Dinamik transformatsiyalanuvchi o‘quv muhiti esa topshiriqlar mazmuni, murakkabligi, yordam hajmi va vaziyat shartlarini talabalarning tayyorgarligiga mos o‘zgartirish imkonini beruvchi pedagogik sharoit sifatida talqin etilgan.

Ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlili bo‘lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashda uchta metodik muammoni ajratish imkonini berdi: nazariy bilimlarni kundalik hayotga oid aniq pedagogik vazifalar bilan bog‘lash; talabalarning individual tayyorgarligiga mos topshiriqlarni tashkil etish; loyihalangan metodik yechimni o‘quvchining ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartirishga o‘rgatish. Mazkur muammolar ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning maxsus metodikasini hamda talabalarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modelini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning integrativ metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarni individual kasbiy rivojlanish dasturi asosida tayyorlash modeli, diagnostik va korreksion-pedagogik faoliyatni uyg‘unlashtiruvchi integrativ texnologiyalar hamda metodik-diagnostik tayyorgarlikni rivojlantirish metodlari yoritilgan. Mazkur bobda nazariy bilimlarni kundalik hayotga oid pedagogik vazifalar bilan bog‘lash, talabalarning individual qiyinchiliklariga mos topshiriqlarni belgilash va kasbiy rivojlanishini monitoring qilishga asoslangan metodik tizim ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda bo‘lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashning integrativ metodikasi nazariy bilim, diagnostik tahlil, metodik loyihalash, amaliy faoliyat, kommunikativ hamkorlik va refleksiv baholashni yagona kasbiy maqsad atrofida birlashtiruvchi tizim sifatida talqin etilgan. Uning asosiy yo‘nalishi talabalarni aqli zaif o‘quvchilarning mavjud ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarini aniqlash, individual ehtiyojlariga mos mashg‘ulotlarni loyihalash, pedagogik yordamni me’yorlash va erishilgan natijalar asosida metodik yechimlarni o‘zgartirishga tayyorlashdan iborat.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modeli M.A.Daminovaning kasbiy-metodik tayyorgarlikka oid modelini o‘rganish asosida ishlab chiqilgan(1-rasmga qarang). Taklif etilgan modelning o‘ziga xosligi ijtimoiylashuvdagi kompleks muammolarga yo‘naltirilgan didaktik vositalarni talabalarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga kiritish, pedagogik vaziyatga mos bir nechta metodik

yechimni tanlash imkoniyatini yaratish hamda tayyorgarlik natijalarini kasbiy faoliyat ko‘rsatkichlari orqali baholashda namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvichlarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modeli

Model o‘zaro bog‘langan maqsadli, mazmuniy, faoliyatli va natijaviy bloklardan tashkil topdi. Maqsadli blokda tayyorgarlikning maqsad va vazifalari, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, differensial, integrativ va refleksiv yondashuvlar hamda insonparvarlik, nazariya-amaliyot birligi, kommunikativ hamkorlik va deontologik mas’uliyat tamoyillari belgilandi. Mazmuniy blokda individual kasbiy rivojlanish dasturining yo‘nalishlari, bosqichlari, topshiriqlari, metod, texnologiya va vositalari tizimlashtirilib, diagnostik, metodik, amaliy, kommunikativ, refleksiv va deontologik tayyorgarlik o‘quvchining imkoniyatlarini aniqlash, o‘rgatish usullarini tanlash, mashg‘ulotlarni tashkil etish, oila va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, faoliyatni tahlil etish hamda kasbiy etikaga rioya qilishni qamrab oldi. Natijaviy blokda esa tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va darajalari kasbiy eruditsiya, pedagogik dizayn va metodik transformatsiya mezonlari asosida baholandi. Ular bilimga tayangan qaror qabul qilish, mashg‘ulotni izchil loyihalash va metodik yechimni individual ehtiyojlarga moslashtirishni ifodaladi. Baholash va monitoring natijalari individual dasturga tuzatish kiritish uchun teskari aloqa vazifasini bajardi.

Modelning amaliy mexanizmi sifatida ishlab chiqilgan “Individual kasbiy rivojlanish dasturi” talabalarning boshlang‘ich bilimlari, kasbiy motivatsiyasi, amaliy qiyinchiliklari va o‘zlashtirish xususiyatlariga muvofiq rivojlanish vazifalarini belgilashga xizmat qildi. Dastlabki diagnostika asosida akademik bo‘shliqlar va kasbiy ehtiyojlar aniqlanib, topshiriqlar mazmuni, murakkabligi, bajarish ketma-ketligi hamda pedagogik yordam shakllari differensiallashtirilgan. Dastur diagnostik-tahliliy, maqsadli-loyihalash, mazmuniy-rejalashtirish, amaliy-ijro va refleksiv-korreksion bosqichlarda amalga oshirilib, ehtiyojlarni aniqlash, maqsad va topshiriqlarni belgilash, metodik ishlanmalar yaratish, mashg‘ulot fragmentlarini o‘tkazish va natijalar asosida tuzatish kiritishni qamrab olgan. Akademik bo‘shliqlarni to‘ldirishda tengdoshlar ko‘magi, leksik flayerlar va modullararo topshiriqlardan, kasbiy yo‘nalganlikni rivojlantirishda fan to‘garaklari va ijtimoiy-professional loyihalardan foydalanilgan. Individual rivojlanish xaritasi faoliyatni tizimlashtirishga, mentorlik va tyutorlik esa talabalarning individual qiyinchiliklarini bartaraf etishga xizmat qilgan.

Tadqiqotda taklif etilgan metodikaning fanlararo asosini “Oligofrenopedagogika”, “Oligofrenopsixologiya” fanlari mazmunining uyg‘unlashtirilishi tashkil etdi. “Oligofrenopsixologiya” moduli o‘quvchining bilish faoliyati, emotsional reaksiyalari va yordamni qabul qilish xususiyatlarini tahlil qilishga, “Oligofrenopedagogika” moduli esa mazkur ma’lumotlarni mashg‘ulotni tashkil etish va metodik qaror ishlab chiqishda qo‘llashga yo‘naltirilgan. Modul o‘qituvchilarining diagnostika natijalari va topshiriqlarni muvofiqlashtirishi bir fanda shakllantirilgan ko‘nikmani boshqa fan topshiriqlarida mustahkamlash imkonini bergan.

Differensial topshiriqlar talabaning tayyorgarlik darajasi va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan kasbiy harakatga ko‘ra tanlangan. Masalan, topshiriqlarni bosqichlashtirishda qiynalgan talabaga kiyinish yoki ovqatlanish ko‘nikmasini shakllantirish uchun bir maqsadga yo‘naltirilgan, murakkabligi turlicha bo‘lgan

topshiriqlar ishlab chiqish vazifasi berilgan. Fanlararo bog‘lanishni aniqlashda qiynalgan talabaga ijtimoiy-maishiy ko‘nikmani mehnat ta’limi yoki nutq o‘stirish mashg‘ulotiga kirituvchi dars fragmentini loyihalash topshirilgan. Tayyorligi yuqori talabalar esa diagnostik ma’lumotlar, rivojlantiruvchi topshiriqlar va muhitni moslashtirish elementlarini birlashtiruvchi mashg‘ulot ishlanmalarini yaratishga yo‘naltirilgan.

Diagnostik va korreksion-pedagogik faoliyatni integratsiyalash metodikaning markaziy mexanizmi sifatida belgilangan. O‘quvchining mavjud ko‘nikmasi va qiyinchiligini aniqlash, pedagogik maqsad qo‘yish, topshiriq va vositalarni tanlash, faoliyatni tashkil etish, natijani kuzatish hamda metodik yechimni moslashtirish o‘zaro bog‘langan harakatlar sifatida amalga oshirilgan. Individual monitoring talabaning diagnostik tahlili, loyihalash faoliyati va amaliy harakatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash hamda keyingi topshiriqlarni shu ehtiyojlarga muvofiq belgilashga xizmat qilgan.

Integrativ texnologiyalar tarkibiga keys-stadi, mikroamaliyot, simulyatsiya, interfaol integrativ seminar, portfolio va refleksiv texnologiyalar kiritildi. Ularni qo‘llash diagnostik va korreksion faoliyat strategiyalarini integratsiyalovchi metodik algoritmni multidissiplinar ta’sir ustuvorligida modellashtirish hamda individual monitoring qulayligini ta’minlashga yo‘naltirilgan modifikatsiyalash asosida tashkil etildi. Bunda oligofrenopedagogik va oligofrenopsixologik bilimlar o‘quvchining imkoniyatlarini aniqlash, pedagogik maqsadni belgilash, mos topshiriq va yordam usullarini tanlash, faoliyatni tashkil etish hamda natijani baholash ketma-ketligida uyg‘unlashtirildi. Algoritmning topshiriqlari, kuzatuv va baholash vositalari har bir talabaning kasbiy rivojlanishini muntazam qayd etish, natijalarni qiyoslash va aniqlangan qiyinchiliklarga muvofiq individual dasturga tuzatish kiritish uchun moslashtirildi. Keys-stadi, mikroamaliyot va simulyatsiya “Oligofrenopedagogika” hamda “Oligofrenopsixologiya” fanlarining ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida, interfaol integrativ seminar, portfolio va refleksiv texnologiyalar esa malakaviy amaliyotda qo‘llanildi. Ushbu texnologiyalar vaziyatni tahlil qilish, pedagogik faoliyatni loyihalash, metodik yechimlarni moslashtirish va kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qildi.

Keys-stadi texnologiyasida mazkur algoritm o‘quvchining ko‘rsatmani tushunmasligi, topshiriqni qisman bajarishi, mustaqil harakatda qiynalishi yoki o‘zlashtirgan ko‘nikmasini yangi vaziyatda qo‘llay olmasligi bilan bog‘liq holatlar asosida amalga oshirildi. Talabalar dastlab diagnostik ma’lumotlarni tahlil qilib, qiyinchiliklar va yordamga ehtiyojni aniqladilar; keyin psixologik va pedagogik bilimlarga tayangan holda korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni belgilab, muqobil metodik yechimlarni qiyosladilar. Tanlangan topshiriq, vosita va yordam usullari o‘quvchining individual imkoniyatlariga muvofiq asoslandi. Shu tariqa keys-stadi diagnostik xulosani amaliy pedagogik qarorga aylantirish va natijaga qarab metodik yechimni qayta ko‘rib chiqishga o‘rgatish vositasi sifatida qo‘llanildi.

Mikroamaliyot texnologiyasi maxsus pedagogik faoliyatning alohida elementlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga yo‘naltirildi. Bunda aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiylashuvidagi kompleks muammolarni hal etishga

yo‘naltirilgan didaktik instrumentariy tarkibiga kundalik hayotga oid topshiriqlar, harakat algoritmlari, vizual ko‘rsatmalar va kuzatuv varaqalari kiritildi. Ushbu vositalar asosida talabalar kiyinish, shaxsiy gigiyena, ovqatlanish va buyumlarni tartibga solish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid kichik mashg‘ulot fragmentlarini ishlab chiqdilar. Jarayonda harakatlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ko‘rsatma berish, yordam hajmini belgilash, bajarishni kuzatish va natijani tahlil qilish mashq qilindi. Bu pedagogik faoliyatning aniq elementlarini sinab ko‘rish va takomillashtirish imkonini berdi.

Simulyatsion texnologiyalarda mazkur didaktik instrumentariy real amaliyotga yaqin, ijtimoiy-maishiy mustaqillik, muloqot va oilaviy hamkorlikdagi qiyinchiliklarni aks ettiruvchi vaziyatli topshiriqlar bilan boyitildi. O‘quvchining topshiriqdan bosh tortishi, ko‘rsatmani qabul qilmasligi yoki ota-onaning bolaning imkoniyatlariga mos kelmaydigan talab qo‘yishi kabi holatlarda talabalar turli metodik va kommunikativ yechimlarni sinab ko‘rdilar. Mashg‘ulotning umumiy maqsadini saqlagan holda topshiriq, yordam hajmi, ko‘rgazmali vosita va muloqot usulini o‘zgartirishga e’tibor qaratildi. Natijada didaktik instrumentariydan vaziyatga mos foydalanish orqali talabalarning kasbiy moslashuvchanligi va asoslangan pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga sharoit yaratildi.

Interfaol integrativ seminarlarda muayyan ijtimoiy-maishiy ko‘nikmani shakllantirish masalasi psixologik, pedagogik, metodik va oilaviy hamkorlik nuqtayi nazaridan birgalikda muhokama qilindi. Bunda talabaning individual tayyorgarligi va kasbiy ehtiyojlariga muvofiq muqobil metodik yechimlarni ishlab chiqish, qiyoslash va tanlash orqali kasbiy rivojlanish trayektoriyasida ko‘p variantli yondashuvlardan foydalanish imkoniyati yaratildi. Masalan, mustaqil ovqatlanishga o‘rgatishda o‘quvchining harakat imkoniyatlari, ko‘rsatmani tushunishi, topshiriqqa munosabati va uy sharoitidagi qo‘llab-quvvatlanishiga qarab, yordam hajmi hamda o‘rgatish usullarining turli variantlari muhokama qilindi. Seminarlar fanlararo bilimlarni umumiy amaliy vazifaga yo‘naltirish va tanlangan metodik yechimni asoslashga xizmat qildi.

Portfolio texnologiyasi talabaning diagnostik xaritalari, keys tahlillari, mashg‘ulot ishlanmalari, amaliyot hisobotlari va refleksiv yozuvlarini tizimli jamlash uchun qo‘llanildi. Ushbu materiallarning qiyosiy tahlili talabaning yutuqlari va takrorlanayotgan qiyinchiliklarini aniqlash hamda kasbiy rivojlanish trayektoriyasining keyingi bosqichi uchun mos topshiriq, metod va qo‘llab-quvvatlash shakllarini tanlashga asos bo‘ldi. Refleksiv kundalik, o‘zini baholash varaqalari, yozma tahlil va o‘zaro ekspert baholash orqali tanlangan yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi baholanib, individual rivojlanish dasturiga zarur o‘zgartirishlar kiritildi.

Metodikaning didaktik ta’minotini pedagogik vaziyatlar va keyslar, diagnostik topshiriqlar, kuzatuv va baholash varaqalari, harakat ketma-ketligi algoritmlari, vizual ko‘rsatmalar, mashg‘ulot namunalari, maishiy predmetlar, individual rivojlanish xaritalari va portfolio materiallari tashkil etdi. Ushbu vositalar muammoni aniqlash, faoliyatni loyihalash, amaliy harakatni bajarish va

natijani baholash vazifalariga muvofiq qo‘llanildi. Ularning tanlanishida topshiriqning tushunarliligi, o‘quvchining individual imkoniyatlariga mosligi va kundalik hayot bilan bog‘liqligi hisobga olindi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida ishlab chiqilgan model va integrativ metodika talabalarning individual tayyorgarligini diagnostika qilish, kasbiy rivojlanish vazifalarini belgilash, fanlararo topshiriqlarni tashkil etish, amaliy vaziyatlarda metodik yechimlarni sinab ko‘rish va monitoring asosida takomillashtirishni yagona tizimda birlashtirgan. Shu orqali bo‘lajak oligofrenopedagoglarni ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash samaradorligini oshirish hamda kasbiy tayyorgarlikni rivojlanitirilishiga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning integrativ metodikasi samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining mazmuni, tashkil etish bosqichlari, talabalarning kasbiy tayyorgarligini baholash tartibi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlili yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2023–2026-yillarda Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti va Toshkent Kimyo xalqaro universitetida jami 204 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi. Chirchiq davlat pedagogika universitetidan 78 nafar, Nukus davlat pedagogika institutidan 29 nafar va Toshkent Kimyo xalqaro universitetidan 97 nafar talaba jalb etilgan. Respondentlarning 103 nafari tajriba, 101 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan integrativ metodika qo‘llanilib, nazorat guruhlarida esa amaldagi ta’lim jarayoni davom ettirildi.

Tajriba-sinovning maqsadi bo‘lajak oligofrenopedagoglarni aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash modeli va integrativ metodikasining samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida tashkil etildi. Talabalarning tayyorgarligi muammoli vaziyatlarni yechish tezkorligini aniqlovchi kasbiy eruditsiya, korreksion ta’sir samaradorligini tashxislovchi pedagogik dizayn hamda o‘zgaruvchan pedagogik sharoitlarga moslashishga tayyorlovchi metodik transformatsiya ko‘nikmalari mezonlari bo‘yicha yuqori, o‘rta va past darajalarda baholandi. Bunda testlar, keys-topshiriqlar, so‘rovnoma, suhbat, pedagogik kuzatish va faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

